

**“O‘ZGA TILLI GURUHLARDA TALABALAR OG‘ZAKI VA YOZMA
NUTQINI O‘STIRISH METODIKASI”GA DOIR ZAMONAVIY
YONDASHUVLAR VA INTERFAOL TA‘LIM METODLARI**

Z. D. Mirzakarimova

f.f.n.dotsent, Toshkent davlat texnika universiteti, Olmaliq filiali“O‘zbek tili va adabiyoti”kafedrası

M. N. Qosimova

katta o‘qituvchi, Toshkent davlat texnika universiteti, Olmaliq filiali“O‘zbek tili va adabiyoti”kafedrası

ARTICLE INFO.

Kalitso‘zlar: pedagogic
texnologiya, axborot texnologiyalari,
metod, metodikda, nutqiy
ko‘nikma, nutqiy faoliyat, muloqot, lingvistik
yondashuv, funksional-kommunikativ
yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv,
interaktiv, interfaol metod.

Annotatsiya

Bu maqolada pedagogik texnologiyalar sohasidagi yangi izlanishlar bilan tanishish, o‘qitishning faol usullarini bilish va qo‘llay olish har bir pedagog oldiga qo‘yayotgan zamon talabi ekanligi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Mamlakatimizda ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar demokratik ta‘lim tizimiga asoslangan bo‘lib, unda olg‘a surilayotgan g‘oyalar shaxsning ma‘naviy, huquqiy madaniyatini insoniyat erishgan barcha yutuqlar asosida qurish, jamiyatga har tomonlama yetuk kadr tayyorlash ishiga qaratilgandir.

Ta‘lim sohasidagi bosh maqsad - ta‘lim va tarbiyaning demokratik, insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish, xalqimizning tarixiy an‘analari va urf-odatlarini, shuningdek, umumbashariy qadriyatlar asosida ta‘lim – tarbiya jarayoni mazmunini tubdan o‘zgartirish, shu maqsadda pedagogik jamoalarning tashabbuskorligiga keng imkoniyat ochib berishdan iboratdir. Ana shu vazifalarni ijobiy hal etish natijasida aqlan yetuk, axloqan barkamol, jismonan sog‘lom, dunyoqarashi keng va teran, yaxlit shakllangan, ya‘ni komil inson shakllanadi.

Pedagogik texnologiyalar sohasidagi yangi izlanishlar bilan tanishish, o‘qitishning faol usullarini bilish va qo‘llay olish har bir pedagog oldiga qo‘yayotgan zamon talablarining asosiylaridandir.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da “Inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishiga va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlari va ta‘sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi”¹ ekanligi alohida ta‘kidlab o‘tilgan. Shu bois hozirgi kunda ta‘lim jarayonida yangi innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini, interfaol metodlarni qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e‘tibor borgan sari kuchayib bormoqda. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari o‘quvchi-talabalarning egallayotgan bilimlari mustahkam bo‘lishiga, ularning mustaqil izlanishlariga, qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanishga harakat qilishlari, lingvistik materiallarni

¹ O‘zR. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Oliy ta‘lim me‘yoriy hujjatlar to‘plami. - T.: Sharq, 2001. - B. 19.

qiyosiy tahlil qilish va ular asosida xulosa chiqara olishga o'rgatadi. Bunda an'anaviy ta'limdagi kabi o'quvchini tayyor bilimlarni egallashga emas, balki boshqaruvchi, yo'naltiruvchi sifatida shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga shart-sharoit yaratiladi, natijada o'quvchilar va talabalar ta'lim jarayonining eshituvchi passiv obyektidan faol subyektiga aylanadilar.

Bizda uzoq muddat o'qituvchi ta'lim jarayonining faol subyekt sifatida, o'quvchi yoki talaba esa ana shu jarayonning passiv obyekt sifatida faoliyat yuritib keldi. Xususan, o'zbek tili darslarida uzoq yillar davomida hukmronlik qilgan reproduktiv, ya'ni berilgan matnni qayta hikoya qilish, so'zlab berish, tayyor mashqlarni, misollarni tahlil qilish usuli o'quvchilarning maktabda olgan bilimlarini amalda mustaqil qo'llash ko'nikmalarini yaxshi rivojlantirmadi. Shu bois ta'lim metodlariga jiddiy e'tibor berish hozirgi kun talabiga aylandi: mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilgan tub islohotlar nafaqat darsliklardagi mashqlarning topshiriqlarini tubdan o'zgartirishni, balki o'quvchi va talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi pedagogik texnologiyalarni darslarga tadbiq etish zaruriyatini ham keltirib chiqarmoqda.

Ma'lumki, bilim berish, o'qitish "ta'lim jarayoni" deb, ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi fan esa "metodika" deb yuritiladi. Ta'lim jarayonida maqsadga erishish, masalalarni hal qilish yo'llari, usullari esa metod demakdir. "Metod"yunoncha so'z bo'lib, "yo'l" ma'nosini ifodalaydi va obyektiv borliqdagi predmet, hodisalarni, ya'ni tadqiqot manbaini ilmiy tahlil qilish, o'rganish orqali uning mohiyatini, tabiati, tarkibiy qismlarini, muayyan o'ziga xos xususiyatlarini topish, ochish, ular haqida ilmiy xulosalar, umumlashmalar chiqarish usulini anglatadi.

Ta'lim usuli o'qituvchi va bilim oluvchilarning ta'lim jarayonidagi aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlari bo'lib, u o'quv materialini nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirish yo'llarini anglatadi.

Dars jarayonida bir emas, bir necha metodlardan foydalanish mumkin, ushbu metodlarning to'g'ri qo'llanishi mashg'ulotning ilmiy-nazariy samaradorligini oshiradi, o'quvchi-talabalarni aqliy va ilmiy jihatdan faollashtiradi. Turli xil pedagogik vaziyatlarda o'qituvchi va o'quvchi-talabalarning faoliyati fikrlarining o'zgarib, almashinib turishi, albatta, dars metodlarining o'zgarishiga ham sabab bo'ladi. Bu pirovard natijada har bir darsning boshqalariga o'xshamagan shaklda, o'ziga xos tarzda tashkil etilishiga yordam beradi va o'quvchi-talabalarda ushbu fanga qiziqish, yangiliklarni ilg'ab olishga intilish hissini uyg'otishga olib keladi.

Ayniqsa, oliy ta'lim bosqichida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari – intellektual metodlar, innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalarning mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishiga, yetuk mutaxassis bo'lish uchun kerakli kasbiy fazilatlariga ega bo'lishga olib keladi. Kadrlarni shu tarzda tayyorlab borish ta'limning quyi bosqichlari uchun yuksak pedagogik mahoratga ega o'qituvchilarni, o'z sohasining bilimdon kadrlari bilan ta'minlanishiga yordam beradi va bu o'z-o'zidan ta'lim sifatining yaxshilanishiga, samaradorlikning o'sishiga olib keladi. Chunki maktabda fan asoslari o'rganilsa, ya'ni umumiy ta'lim berilsa, oliy ta'limda talaba zamonaviy fanni o'rganadi va ixtisoslik bo'yicha ta'lim oladi. Shuning uchun ham oliy maktabdagi o'qitish metodlari bilimlarni yetkazish va anglashning usullarigina emas, balki fan taraqqiyoti jarayoniga tobora kirib borish, uning metodologik va g'oyaviy asosini ochish metodi hamdir.

Aytilganlardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, ta'lim metodi – o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lsa, ta'lim metodikasi esa muayyan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimini tavsiflaydi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar majmuaviy uzviy bog'liqlikdagi tizim bo'lib, unda ta'lim maqsadlari asosida belgilangan ko'nikma va malakalar o'quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o'zlashtirishga, ularda muayyan ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik

faoliyat elementlarining ma'lum tartibga solingan to'plami sifatida aks etadi. Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi o'quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat. Bunda ta'lim maqsadlarining belgilanishi, ya'ni ta'lim *kimga va nima maqsadda?* berilishi, mazmuni tanlash va ishlab chiqish, ya'ni *nimani?* berish, ta'lim jarayonlarini *qay tarzda?* tashkil qilish, ta'lim metodi va vositalarini aniq belgilab olish, ya'ni *qanday vositalar yordamida* ta'lim berish, shuningdek, o'qituvchilar malakasi darajasi, ya'ni *kim?* ta'lim berishi, erishilgan natijalarni *qanday yo'l bilan?* baholash metodlari markaziy o'rinni egallaydi.

Pedagogik texnologiya turlarini tanlash shakllanayotgan bilim, ko'nikma va malakalar, tashkil etilayotgan darslarning shakli, qo'llanilayotgan metodlar va metodik usullarning xususiyatiga bog'liq. Masalan, o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o'quv materiallariga tanqidiy yondashish ko'nikmasini shakllantirish hamda mahsuldor faoliyat turlarini tashkil etish bilan bir qatorda, ya'ni an'anaviy dars shakllari bilan birga bahs-munozara, konferensiya darslari, ish o'yinlari, hamkorlikda o'tkaziladigan turli dasturlardan foydalanish lozim.

Ma'lumki, til ta'limida har bir ta'lim bosqichida ma'lum bir hajmdagi bilimlarni o'zlashtirish ko'zda tutiladi. O'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlar asosini esa o'quv dasturida ko'rsatilgan fonetik, leksik, grammatik ma'lumotlardan iborat til materiallari tashkil qiladi va ular davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq holda har bir ta'lim bosqichi uchun alohida taqsimlanadi. Ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarda ushbu bilimlar asosida nutqiy ko'nikmalar hosil qildirib boriladi. Ushbu bilimlar bosqichlar o'rtasida to'g'ri taqsimlanmasa, ta'lim mazmunining uzviyligi va uzluksizligiga erishib bo'lmaydi.

Nutqiy ko'nikmalar nutq faoliyatining 4 asosiy turi: o'qish, tinglab tushunish, gapirish va yozish ko'nikmalari orqali yuzaga keladi va o'quvchilarning olgan bilimlarini amaliy nutqiy faoliyatda sobitqadamlik bilan mustaqil ravishda qo'llay olish qobiliyatini - nutqiy malakani hosil qilishga yordam beradi. Taniqli psixolog I.A.Zimnyaya ta'rificha, "*malaka mashqlar natijasida harakatlarning yuqori mukammallikka erishuvi va nutqiy jarayonlarning avtomatlashuvidir*".

Haqiqatan ham, so'zlashish, muloqot yuritish jarayoni fikrni leksik, grammatik va fonetik jihatdan rasmiylashtirishning eng samarali darajasini – yuqori darajada avtomatlashgan nutqiy ko'nikmalarni, ya'ni nutqiy malaka hosil qilinishini talab etadi. Nutqiy muloqotda nutqiy malakaning hosil qilinishi kommunikativ maqsadning asosini tashkil etadi, chunki aynan tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish ko'nikma malakalari orqali ikkinchi bir tilda o'zaro axborot almashish, og'zaki va yozma muloqot yurita olish malakasi vujudga keltiriladi.

Demak, nutqiy jarayon biri-biriga bog'liq bo'lgan va o'zaro ta'sir qilib turadigan quyidagi 3 omil: til birliklari va ularning o'zaro bog'lanishini o'rgatuvchi grammatik bilimlar, ushbu birliklar va qoidalarni amaliy qo'llash ko'nikmalari hamda o'z fikrlarini yangi vaziyatda erkin ifodalash uchun o'rganilgan bilimlardan foydalana olish malakalaridan tashkil topadi. Shu uch omil birgalikda amal qilgandagina nutqiy faoliyatni yuzaga keltiradi. Aynan shu omillarni bosqichma-bosqich rivojlantirib borish tilga o'rgatishning asosi hisoblanadi. Bunda ularning tizimli ravishda berilishi, til birliklarining o'zaro sintagmatik va paradigmatik aloqadorlikda, bog'liqlikda bo'lishi ayniqsa muhimdir.

Nutqiy muloqot jarayonida inson ana shu bog'liqliklarni kompleks holda, ya'ni tinglash, o'qish va ma'nolarini tushunish birligida qabul qiladi. Nutqiy faoliyatning ushbu turlari bir-biriga bog'liq holda bosqichdan-bosqichga o'zaro uzviy bog'liq holda o'zlashtirib borilishi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlaydi.

Til nafaqat insonni, balki kishilik jamiyatini ham barpo etgan, uning taraqqiyotiga sabab bo'lgan va hozirgi kunda ham turli mamlakatlarni bir-biriga bog'lab turgan buyuk ne'mat, qudratli kuchdir. Shuning uchun tillarni o'rganish, til ta'limining eng samarali intensiv metodlarini ishlab chiqish masalalariga hamisha katta e'tibor qaratib kelingan, til o'qitish metodlari muntazam takomillashtirib borilgan.

Yondashuv, prinsip, metod tushunchalari amaliyotda ko‘pincha metod va usullar tushunchalari bilan almashtirib qo‘llanadi, ya‘ni o‘qitishning prinsipial yo‘nalishini belgilash uchun ham, dars berish metodi ma‘nosida ham ishlatiladi. Til ta‘limida o‘qitishning prinsipial yo‘nalishi tamoyil yoki yondashuv, metod esa usul, uslub tarzida talqin qilinadi. Metodist-olim R.Yo‘ldoshev fikricha, metod ta‘lim maqsadiga eng qisqa yo‘l va qisqa vaqt ichida erishtiradigan usul yoki usullar majmuasidan iborat bo‘lib, bir usuldan tashkil topganida ular tenglashadi, biroq metod usuldan keng tushunchaligicha qolaveradi.² Yondashuv metodlar tizimi bilan ish ko‘radi, demak, metod yondashuvdan kichik tushuncha sanaladi. Bu o‘rinda, bizningcha, metod va metodika terminlari aralashtirib yuborilgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘atida” ushbu tushunchalar quyidagicha izohlanadi:

“Metod (yunoncha methods – tadqiqot usuli, yo‘li) 1. Tabiat va jamiyat hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. 2. Usul, uslub” sifatida;

“Metodika (yunoncha methodika) 1. Biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig‘indisi. 2. O‘qitish usullari haqidagi ta‘limot.” Metodik so‘zi esa metod va metodikaga xos, usuliy ma‘nolarini bildiradi.³

Keyingi yillarda mamlakatimizda o‘zbek tilini o‘qitishda quyidagi tamoyillar yoki yondashuvlardan foydalanilmoqda:

Lingvistik yoki an‘anaviy tizimli yondashuv. Ushbu yondashuvda til ta‘limi aspektli tamoyil yo‘nalishida, ya‘ni ta‘lim mazmunini tizimli ketma-ketlikda taqsimlash yo‘nalishida beriladi va, asosan, filologik yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlarida qo‘llanadi. Bunda o‘zbek tili sathlar izchilligida o‘qitiladi va bu tilni nazariy jihatdan chuqur o‘rganish, o‘zbek tilining leksik-semantik va grammatik imkoniyatlari bilan to‘liq tanishish imkonini beradi. Shu bois filologik yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlarida ushbu tamoyildan foydalanish maqsadga muvofiq. Albatta, til ta‘limining boshlang‘ich bosqichlarida, ta‘lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda, va oliy ta‘limning nofilologik muassasalarida fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksisni tizimli kurs sifatida o‘qitish samarali natija bermaydi.

Funksional-kommunikativ yondashuv. Hozirgi kunda xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida keng qo‘llanayotgan mazkur yondashuvda tilni amaliy maqsadda o‘qitish, ya‘ni o‘quvchilarni biron-bir mavzuda fikr almashish va fikr bayon qilishga o‘rgatish maqsad qilib qo‘yiladi. O‘quvchilarda, avvalo, nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ushbu tamoyilni funksional aspektda o‘qitish deb ham ataydilar. Mazkur tamoyil bundan 40 yil avval Yevropada gollandiyalik Van Eyk tomonidan yaratilgan bo‘lib⁴, u o‘zbek tili ta‘limida ilk marta 1990-yilda M.Qodirovning oliy o‘quv yurtlari fakultetlarining rus guruhlar uchun tuzgan “O‘zbek tilidan dastur”⁵ orqali oliy o‘quv yurtlarida, 1998-1999 yillardan boshlab esa R.Tolipova va boshqalar tomonidan tuzilgan o‘quv dasturi orqali umumiy o‘rta ta‘lim bosqichining ta‘lim rus tilida olib boriladigan maktablarida tatbiq etila boshlandi. Ushbu o‘quv dasturlarida kundalik muloqot ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan nutqiy mavzular va nutqiy modellar vositasida o‘quvchilarda o‘zbek tilida o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda erkin ifodalash, mustaqil so‘zlashish ko‘nikmalarini hosil qilish asosiy maqsad qilib olingan.

Bunda o‘quvchi-talabalarga grammatik mavzularni emas, balki muayyan fikrni ifodalash uchun zarur bo‘ladigan nutqiy qurilmalar asosida biron bir nutqiy mavzuda so‘zlashishga o‘rgatish ko‘zda tutiladi, grammatik qoidalar esa faqat nutqiy ehtiyojdan kelib chiqib beriladi. Shuning uchun har bir mavzu bo‘yicha beriladigan fonetik, leksik, grammatik (morfologik va sintaktik) bilimlar til sathlari bo‘yicha

² Yo‘ldoshev R.A. O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki nutqini ularni ko‘p gapirtirish orqali o‘stirish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya.-B.2012. – 212 b.

³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2-jild – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.-Toshkent, 2006. – B.582.

⁴ Tolipova R. XXI asrda til o‘qitish istiqbollari haqida // XXI asrda o‘zbek tili ta‘limi masalalari: O‘zbek tili doimiy 9-anjumani materiallari. –Toshkent: 2007. –B.192–193.

⁵ Qodirov M.O‘zbek tilidan dastur (oliy o‘quv yurtlari fakultetlarining rus guruhlar uchun)–Toshkent, 1990. –B.19.

emas, balki kompleks holda berilib, o'quvchilarni 4ta asosiy amal: tinglab tushunish, so'zlash, o'qish va yozish asosida nutqiy faoliyat yuritishga o'rgatish ko'zda tutiladi. Nutqiy mavzularning yetakchilik qilishi grammatik bilimlarni tarqoq holda berilishiga, mustahkamlanib borilmasligiga, mavzularning taqvimga mos tarzda takrorlanib kelishi (ya'ni qishda qish, kuzda kuz mavzulari, bayramlarning har yili qaytarilishi) oqibatida qaytariqlar yuz berishiga olib keldi. Natijada, o'zbek tilining o'qitilishida uzviylik va uzluksizlikning ta'minlanmasligiga olib kelmoqda. Haqiqatan ham, mavzuviylik leksikani bir mavzu doirasida jamlab borishda qulaylik tug'dirsa-da, lekin bir mavzudan ikkinchi mavzuga o'tganda, oldingi o'rganilgan leksikadan keyingi mavzularda deyarli foydalanilmasligi faol leksik minimumni puxta o'zlashtirmaslikka olib kelmoqda. Mavzuviylik tamoyili so'zlarni guruhlab o'rganish uchun muayyan qulaylik yaratsa-da, so'zlarning takroriy ishlatilish chastotasini ta'minlashda mutlaqo noqulay, grammatik vositalarni izchil rejalashtirish masalasida esa uning qulaylik tomoni yo'q darajada.

Ikkinchi til ta'limida nutqiy modellar, nutqiy qurilmalardan foydalanish qator uslubiy qulaylik va ustunliklarga ega. Muayyan fikrni ifodalashda, ya'ni ma'lum bir grammatik mavzu bo'yicha eng ko'p qo'llanadigan nutqiy qurilmalarning o'quvchilarning diqqatini jalb qilish uchun ajratib berilishi mavzuning nisbatan tezroq o'zlashtirilishiga, mazkur nutqiy modellarning o'quvchilar xotirasida uzoq saqlanib qolishi va nutqda faolroq qo'llanishiga olib keladi. Nutqiy modellar, albatta, nutqiy qurilmalarni qo'llashni jadallashtirishga, sintagmatik gap tuzish malakasini shakllantirishga katta yordam beradi. Ammo til o'zlashtirishda nutqiy modellardan foydalanishni yagona vosita sifatida talqin qilish va boshqa turdagi metodik usullarni nazardan chetda qoldirish samarali natijalarga olib kelmaydi. Faqat nutqiy qurilmalarni, ularning qo'llanishini ajratib ko'rsatib berishning o'zi tilni mustahkam o'zlashtirish uchun yetarli bo'la olmaydi, shu bois, tilga o'rgatishda faqat nutqiy qurilmalarning o'zi bilangina cheklanib qolish maqsadga muvofiq emas.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarni hosil qiladi.

Ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo'llash natijasida talabalarni mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bugungi kunda amaliyotda yangilik va innovatsiya so'zlari o'rtasida farqlar mavjud. Yangilik bu fandagi eng so'nggi yutuqlar, bilimlar, usullar hisoblanadi. Ushbu yutuqlar, bilimlar, usullar amalda qo'llanilishi bilan innovatsiyaga aylanadi. Innovatsion texnologiyalar talabalarning faol hayotiy munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan. Ularga o'quv jarayonidagi yangi shakldagi intreaktiv usullar kiradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida dars samaradorligini oshirish, o'quvchilar bilimini mustahkamlash, o'quvchularning darsga qiziqishlarini oshirishda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarni qo'llash tobora keng tus olmoqda. Interfaol metodlar boshqa metodlar singari o'quv mashg'ulotning tarkibiy qismi sifatida o'qituvchi va talaba hamkorligini tashkil etishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, texnologik jarayonning to'liq amalga oshirilishi uchun xizmat qiladi. Interfaol metodlarning asosiy xususiyati talabalarni faollashtirish va fikrlashni rivojlantirishga sharoit yaratishdir. Ammo ularni mutlaqlashtirib qo'yish ham o'rinli emas, chunki interfaol metodlar yangi bilimlarni berishga xizmat qilmaydi. Ana shu sababli ular bir necha asrlardan buyon oliy ta'limda qo'llanib kelinayotgan suhbat, hikoya, tushuntrish, ko'rsatish, namoyish etish, didaktik oyin kabi metodlarni chetga surib qoya olmaydi. Talabalarni bilimlar bilan qurollantirmasdan turib, fikrlashga va faollikka undab bo'lmaydi. Chunki, fikr yuritish uchun narsa, hodisa haqida yetarlicha bilimga ega bo'lish kerak. Bunday metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning o'qish motivlarini

o‘stiradi. Bunda an’anaviy ta’limdagi kabi bir xillik asosida emas, balki yangiliklar asosida ta’lim jarayonining ta’sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shakllaridan foydalaniladi. Mashg‘ulotlar jarayonida pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o‘quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interfaol metodlardan foydalanish ta’lim maqsadini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi. Ta’lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun, avvalo, darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur. Dars loyihasini tuzishda o‘qituvchi o‘zining ish shakllari va o‘quvchilarning ko‘nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, qanday o‘qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega. O‘qitish metodi – ko‘zlangan maqsad, yoki rivojlantirilgan aniq bir maqsadga erishish yo‘lidagi amallar ketma-ketligidir

“Interaktiv”- inglizcha so‘z bo‘lib, “o‘zaro harakat qilmoq” degan ma’noni bildiradi.

Interfaol ta’lim bu doimiy muloqatga asoslangan metodlar tizimi, o‘zaro harakat, ya’ni hamkorlik asosida o‘qitish demakdir.

Interfaol metodlar – o‘quv jarayonini muayyan shaklda loyihalashtirishdir. Yangi pedagogik texnologiya esa an’anaviy dars qurilishini zamonaviy interfaol usul, noan’anaviy shaklda o‘ziga xos qayta loyihalashtirishdir.

Interfaol dars jarayonlari shunday tashkil etilishi kerakki, bunda barcha talabalalar faollashishi zarur, ya’ni dars o‘tish jarayonida o‘quv materiallarining ma’lum bir qismi talabalalar tomonidan mustaqil o‘rganiladi, so‘ngra sinfda har tomonlama muhokama etiladi. O‘qituvchi o‘quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hamdir. O‘quvchining sinfda o‘zini erkin his qilishi va o‘quv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o‘zining fikrlarini erkin bayon qila oladi. Interfaol usullar xilma-hil bo‘lib, qaysi metodni tanlash o‘qituvchining o‘tayotgan mavzusi, darsning maqsadi va vazifalariga bog‘liq. Interfaol mashg‘ulot - o‘qituvchi va talabalalar o‘zaro faol ishtirok etadigan mashg‘ulot, hamkorlikda kechadigan jarayon.

O‘qitish – ta’lim tizimini yaxshilash, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar mazmunini, sifatini yaxshilash, o‘quvchi-talabalarni kitob mutolaasiga jalb qilish, ideallar, badiiy qahramonlarga ergashtirish ana shu tugunlarni yechishga yordam beradi, deb o‘ylaymiz.

Ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, darslarda kommunikativ-nutqiy tamoyilni tadbiq etish, texnik vositalar: audio-video apparatlar, o‘quv videofilmlaridan foydalanish, o‘qituvchilarga darslarini texnik vositalar bilan to‘liq ta’minlangan auditoriyalarda o‘tkazish uchun to‘liq shart-sharoit yaratish zarur. Biroq barcha o‘zbek tili o‘qituvchilarining ilmiy salohiyatini yuqori darajada deb bo‘lmaydi. Bugungi kun o‘qituvchisi uchun o‘z sohasi bo‘yicha chuqur nazariy bilimga ega bo‘lishning o‘zi yetarli emas, u zamonaviy ta’lim shakllari, innovation va axborot texnologiyalaridan foydalana oladigan, muammolarni aniqlashga, g‘oyalarni regeneratsiya qilishga, qarorlarni qabul qilishga qodir, pedagogik boshqarish uslublari va vositalarini yaxshi biladigan mutaxassis bo‘lishi ham kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipova R. XXI asrda til o‘qitish istiqbollari haqida // XXI asrda o‘zbek tili ta’limi masalalari: O‘zbek tili doimiy 9-anjumani materiallari. –Toshkent: 2007. –B.192–193.
2. Qodirov M.O‘zbek tilidan dastur (oliy o‘quv yurtlari fakultetlarining rus guruhlar uchun)–Toshkent, 1990. – B.19.
3. Yo‘ldoshev R.A. O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki nutqini ularni ko‘p gapirtirish orqali o‘stirish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya.-B.2012. – 212 b.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2-jild – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.-Toshkent, 2006. – B.582.
5. O‘zR. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi //Oliy ta’lim me’yoriy hujjatlar to‘plami.- T.: IIIapк, 2001. –B. 19.